



RAQAMLI INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA FOYDA SOLIG'I BO'YICHA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING XUSUSIYATLARI

Babajanov Davronbek Jumamuratovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-1577-0580

davrbobo@mail.ru

Annotasiya. Mazkur maqola foyda solig'i bilan bog'liq soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirishga bag'ishlangan. Foyda solig'i davlat uchun muhim daromad manbai bo'lib, samarali soliq ma'muriyatchiligi byudjet daromadlarini samarali yig'ish va soliq to'lovchilar tomonidan rioya etilishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu tahlil jarayonni soddalashtirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida takomillashtirilishi mumkin bo'lgan soliq ma'muriyatchiligining turli jihatlarini o'rganadi. Tahlil turli mamlakatlardagi tegishli adabiyotlar, tadqiqotlar va tajribalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, foyda solig'i, soliq tushumlari, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, soliq munosatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki.

ОСОБЕННОСТИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ ПО НАЛОГУ НА ПРИБЫЛЬ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Бабажанов Давронбек Джумамуратович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию налогового администрирования по налогу на прибыль. Подоходный налог является важным источником доходов правительства, и эффективное налоговое администрирование имеет важное значение для обеспечения эффективного сбора доходов и соблюдения требований налогоплательщиков. В этом анализе рассматриваются различные аспекты налогового администрирования, которые можно улучшить, чтобы упростить процесс, сократить уклонение от уплаты налогов и создать более благоприятную для бизнеса среду. Анализ включает обзор соответствующей литературы, исследований и опыта разных стран. При этом изучаются такие направления, как подпольная торговля и общепит, автомобильный транспорт, жилищное строительство и ремонт, оказание жилищно-бытовых услуг в экономике, зарубежный опыт и научно-практические заключения по его применению в нашей стране и предложения. сформулированы.

Ключевые слова: налог, налог на прибыль, налоговые поступления, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка, налоговые отношения, налоговая политика, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговое бремя.

FEATURES OF THE TAX ADMINISTRATION ON PROFIT TAX IN THE CONTEXT OF THE DEVELOPMENT OF DIGITAL INFRASTRUCTURE

Babajanov Davronbek Jumamuratovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article is devoted to the improvement of tax administration related to profit tax. Income tax is an important source of revenue for the government, and effective tax administration is essential to ensure effective revenue collection and taxpayer compliance. This analysis explores various aspects of tax administration that could be improved to simplify the process, reduce tax evasion and create a more business-friendly environment. The analysis includes a review of relevant literature, studies and experiences from different countries. At the same time, such areas as underground trade and general catering, transport by motor vehicle, housing construction and repair, provision of residential services in the economy are studied, foreign experience and scientific-practical conclusion on its application in our country. and suggestions are formulated.

Key words: tax, profit tax, tax revenue, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate. tax attitudes, tax policy, state budget, tax administration, tax burden.

Kirish.

Jahonda tobora keskinlashib borayotgan global raqobat sharoitida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib, bu soliq-byudjet tizimining samaradorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning barqarorligi va ularning daromadlar bazasini mustahkamlashning dolzarbligini oshirmoqda. "Foydani soliqqa tortish bevosita soliqqa tortish amal qilishining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, ya'ni soliqlarning fiskal funksiyasini bajarish maqsadida xo'jalik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish ro'y beradi. Uzoq yillar davomida foyda solig'i byudjet soliq daromadlarining ahamiyatli qismini shakllantirib, tashkilotlarning rivojlanishida muhim tartibga soluvchi rol ni o'ynaydi". Jahon iqtisodiyotida huquqiy jihatdan shakllantirilgan korporativ soliq stavkalari korporatsiyalar duch keladigan asosiy soliq stavkasi hisoblanib, bu yuridiksiyalarni hisobga olgan holda va vaqt o'tishi bilan korporatsiyalar uchun standart soliq stavkalarini taqqoslash uchun qo'llanilishi mumkinligini anglatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxonalar to'lov intizomi mustahkam bo'lsa, byudjetga o'z vaqtida soliqlarni to'lab har bir jarimalardan qochishga intiladi va soliqlarni o'z vaqtida byudjetga to'laydi. Foyda tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.

Narxlar barqaror bo'lganda foyda dinamikasining o'sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foyda hajmining o'sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Abdulkarimov (2005) foydani murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etib, u asosan qo'shimcha qiymat yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi deb ta'kidlaydi.

Alieva (2011) foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to'lov, ya'ni aynan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni mohirona birlashtirishi, korxonalar boshqarish bo'yicha noodatij qarorlar qabul qilishi, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilishi,

ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirishi uchun, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot sifatida e'tirof etadi. Nemis iqtisodchisi E.F. Sheffle foydani investitsiya qilingan kapital qaytimi sifatida talqin etgan.

Milyakov (1999) foydani korxonalar byudjetini shakllantirishning muhim manbasi va bu manba hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilishini aytib o'tadi. Ko'pchilik singari Mardiasmo (2013) ham, foyda solig'ini foyda bilan bog'laydi. U foyda solig'i qonunchilikda ko'rsatilgan sub'ektiv shartlar va ob'ektiv talablarga rioya qilingandagi soliq to'lovchilardan olinadi deb fikr keltiradi.

Toshmurodov (2004) korxonalar foyda solig'ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to'lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan – foyda solig'i tushunchasiga quyidagi taklif shakllantirildi: – foyda solig'i deganda korxonalar, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo'shimchaning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to'lov sifatida davlat byudjeti ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq pul munosabatlari tushuniladi.

A.Fedorov. (2010) fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan".

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takkomillashtirishga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda inson faoliyatining barcha sohalarida raqamlashtirish masalasi juda dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Inson mehnatini abstraksiyalash va uni mashina mehnati bilan almashtirishga qaratilgan loyiha va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham kamaytiradi. Shu bilan birga, mamlakat rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham katta rol o'ynaydi. Soliq munosbatlarini tartibga solishda soliq ma'muriyatchiligi muhim ahamiyat kasb etib unda raqamlashtirish ishlarini jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ayniqsa foyda solig'i bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish orqali normativ-huquqiy bazani bir maromda shakllanishiga olib keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu sohaga katta e'tibor qaratib, 2020-yilning 24-yanvarida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida shunday dedilar: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida yurtimizda 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"⁶, deb nom berishni taklif etgan. Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish vazifasini belgilab berdilar.

Soliq hisobot shakllari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2020-yil 28-yanvardagi 2020-03-son qarori bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 3221-son, 24.02.2020-y.) "Soliq hisobot shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur Qarorning 3-ilovasi bilan foyda solig'i hisoboti shakllari tasdiqlangan. Hisobotning 9 ta ilovasi mavjud. 1-ilova — jami daromadlari, 2-ilova — xarajatlar, 3-ilova — investitsiyaviy chegirma, 4-ilova — imtiyozlar, 5-ilova — nol stavka qo'llaniladigan soliqqa

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 21 январдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Сенетига Мурожаатномаси. <http://turkiston.uz> (мурожаат санаси: 16.03.2020)

tortiladigan foyda, 6-ilova — joriy soliq bazasidan kamaytiriladigan oldingi soliq davrining zararlari, 7-ilova — alohida operatsiyalar bo'yicha zararni ko'chirishning xususiyatlari, 8-ilova — O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan va hisobga olinadigan foyda solig'i summasi, 9-ilova — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar tarzidagi daromadlardan foyda solig'ining ma'lumotnoma hisob-kitobi.



1-rasm. O'zbekiston soliq tizimida soliq ma'muriyatchiligi oid raqamlashtirish huquqiy bazaning shakllanishi⁷

Mazkur foyda solig'i hisobotining satrlari o'rganilganda, soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish, ularning hisobotni tuzishga ketadigan vaqtini tejash va xatoga yo'l qo'ymasligining oldini olish maqsadida, ayrim satrlarini raqamlashtirish (boshqa hisobot satrlari yoki boshqa tashqi manba dasturlari bilan integratsiya qilish) bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad (1-ilova 030-satr), sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi (1-ilova 040-satr), amortizatsiya qilinadigan aktivlarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad (1-ilova 050-satr), mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad (1-ilova 060-satr), tekin olingan mol-mulk (xizmatlar) satri (1-ilova 070-satr), inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad (1-ilova 080-satr), qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

daromad (1-ilova 090-satr), talab qilish huquqidan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromad (1-ilova 100-satr), dividendlar tarzidagi daromadlar (1-ilova 110-satr), foizlar tarzidagi daromadlar (1-ilova 120-satr), valyuta kursi farqidan daromadlar (1-ilova 130-satr), moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan mol-mulkni berish bo'yicha pul mukofoti tarzidagi daromad (1-ilova 140-satr), notijorat tashkilotlari tomonidan aholining diniy maqsadda foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari (1-ilova 150-satr), nazorat qilinadigan chet el kompaniyasining taqsimlanmagan foydasi (1-ilova 160-satr), Transfert narxni belgilash natijasida olinmagan daromad summasi (1-ilova 170-satr), operativ ijara bo'yicha xarajatlar (2-ilovasi 0112-satri), foizlar va ayrim chiqimlar bo'yicha xarajatlar (2-ilovasi 0114-satri), o'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromad (5-ilova 011-satri), ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshirishdan olingan daromad (5-ilova 013-satri) satrlarini elektron hisobvaraqa-faktura (EHF) dasturi bilan mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodi (MHIK) orqali integratsiya qilish.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 248-moddasining to'rtinchi qismida belgilangan hollarda va tartibda soliq bazasiga tovarlar (xizmatlar)ning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda tuzatish kiritish natijasida olingan daromadlar (1-ilova 180-satr) satrini qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti 1-ilovasi (soliq davridagi tovar (xizmat)larni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalar) 0108-satri bilan integratsiya qilish.

Uchinchidan, mol-mulk, yer, suv resurslaridan hamda yer qa'ridan foydalanganlik soliqlar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi (Qarorga 7-ilova) 170-satri, joriy soliq davrining 1-yanvar holatiga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha to'lanadigan yer solig'i hisob-kitobi (Qarorga 8-ilova) 040-satri, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi 080-satri 22-ustuni, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq hisoboti shakllari, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi 050-satri bilan integratsiya qilish.

To'rtinchidan, soliq to'lovchining Soliq kodeksining 376-moddasida nazarda tutilgan jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari (2-ilova 0119-satr), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha soliq hisoboti shakllari 6-ilovasi 6-ustuni jami bilan integratsiya qilish.

Beshinchidan, foyda solig'i hisobotining 5-ilovasi (nol stavka qo'llaniladigan soliq to'lovchilar foydasi) tovar (xizmat)larni eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromad (016-satri)ni qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti 2-ilovasi (soliq davrida qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan va nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmalari) 041-satri bilan integratsiya qilish.

Iqtisodiyotda soliq munosabatlarini, shuningdek, foyda solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish modernizatsiyalashning eng yorqin ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bu avvalo, milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, aholi farovonligini ta'minlash kabi muhim ijtimoiy muammolarni ham hal etish imkonini beradi. Shu boisdan ham foyda solig'i bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish orqali optimallashtirish va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan uyg'unligini ta'minlash juda muhim masalalardan biridir. Foyda solig'ini samarali takomillashtirishda hozirgi global iqtisodiyotda ko'proq ma'lumotlarni almashishda elektronlashtirish muhim hisoblanadi. Bunda, soliq va moliyaviy hisobotlarning to'liq elektron shaklda taqdim etilishiga o'tilganligi tadbirkorlarning ko'p vaqtlarini sarflab navbatda turishlarini oldini olish bilan bir qatorda ularning qo'shimcha xarajatlarini ya'ni mablag'larini iqtisod qilishda juda katta yordam bo'lmoqda. Ushbu avtomatlashtirilgan dasturlar va usullar davlat budjetiga to'lanadigan mablag'lar bo'yicha ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, soliq to'lovchi bo'lgan yuridik shaxslar internetdagi "Shaxsiy kabinet"lari orqali soliq va boshqa majburiy to'lovlarni ham onlayn shaklda to'lash imkoniyatiga ega bo'lib kelishmoqda. Bu esa qo'shimcha ish va ovoragarchiliklarning oldini olmoqda va foyda solig'i bo'yicha ham soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga imkoniyat hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bu – budjetga to'lanadigan to'lovlarning to'g'riligi, shaffofligi, ochiqligi hamda taqdim etilgan elektron ma'lumotlarni qayta ishlab jo'natish imkoniyati mavjudligi ham muhim bo'lib hisoblanadi. Bu esa foyda solig'ining soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiyalash va isloh qilishda soliq-budjet munosabatlarini optimallashtirishga, soliq to'lovchilarning mustaqil daromad topishlariga, soliq tekshiruvlarining samaradorligini oshirishga, soliq to'lovchilar faoliyatiga asossiz aralashuv va tekshiruvlarning oldini olishga, faoliyat yuritmagan hisobot davrlari uchun noo'rin qo'shimcha soliq to'lovlarni majburiy tarzda to'lamasdan xarajatlarini yanada kamaytirish kabi ko'plab imkoniyatlarni yaratib bera oladi deb hisoblaymiz.

Foyda solig'i hisobotlarini shakllantirish ham foyda solig'i ma'muriyatchiligining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Foyda solig'i hisobotini shakllantirishda uning 4-ilovasi "Imtiyozlar" hisobotida imtiyozdan foydalanish uchun imtiyoz turi raqamlashtirilgan bo'lib, korxonaning murojaatiga asosan hisobot shaklida avtomat shakllanadi. Shuningdek, foyda solig'i hisobotlaridagi ma'lumotlar bilan soliq organlarida mavjud ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, korxonadan tomonidan taqdim etilgan hisobotdagi ma'lumotlarning haqqoniyligi tekshiruvdan oldingi avtomatlashtirilgan "Avtokameral dasturiy mahsul" yordamida tekshirish imkoniyati yaratildi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish soliq ma'muriyatchiligining paradigmasini konseptual jihatdan o'zgartirmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish, bir tomondan, yangi salohiyatli imkoniyatlarni ochib bersa, ikkinchi tomondan, soliqni tartibga solish va nazorat qilishning an'anaviy yo'nalishlarida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Dissertatsiyada soliq ma'muriyatchiligi jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini o'rganganmiz. Raqamli iqtisodiyotda yuzaga keladigan yangi soliq xatarlarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanib, soliq sohasida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari tahlili o'tkazildi va raqamli iqtisodiyotda O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirish va samaradorligini oshirish istiqbollari belgilandi.

Hozirgi vaqtda kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy sohaga ta'sir qiluvchi muhim omil bo'lib, bu o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichining zamonaviy tendensiyalarini belgilovchi internetda jadal rivojlanayotgan biznes jarayonlar, global axborot-moliya markazlari va global mobil aloqa tarmoqlarining shakllanishidan iborat bo'lmoqda. Bularning barchasi iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi va bugungi kunda raqamli xalqaro iqtisodiyot shakllanayotganidan dalolat beradi. Raqamli iqtisodiyot odamlarning ehtiyojlarini yanada malakali va samarali qondirish mumkinligini ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uchta asosiy komponent zarur:

1) infratuzilma yoki internet, dasturiy ta'minot va telekommunikatsiyalarga kirishni ta'minlash;

2) elektron biznes, kompyuter tarmoqlari orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish;

3) elektron tijorat, internet orqali tovarlarni (xizmatlarni) sotish⁸.

Raqamli iqtisodiyotda institutsional va infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar axborot muhitini yaratish, platformalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, bozor subyektlari (yetkazib beruvchilar, tovarlar, ishlar, xizmatlar iste'molchilari) o'rtasida samarali tarmoqlararo o'zaro hamkorlikni ta'minlashdan iborat.

Yangi turdagi nomoddiy manfaatlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: — katta hajmdagi ma'lumotlarni biznes jarayonlariga kiritish (Big Data); — yangi formatdagi ko'plab biznes modellaridan foydalanish; — daromad manbayi yurisdiksiyasini aniqlashda qiyinchiliklarni aniqlash.

Iqtisodiyotning yangi turini afzalliklari ishtirokchilar o'rtasidagi sodda va tezkor o'zaro aloqani o'z ichiga oladi, bu orqali iqtisodiy jarayonlar sodda va shaffof tarzda boshqariladi.

⁸ Chelysheva, E.A. (2016) Problems and prospects of the improvement tax regulation. Nauchnyy vestnik Yuzhnogo instituta menedzhmenta – Scientific Bulletin of the Southern Institute of Management. 1. pp. 33–39. (In Russian). DOI: 10.31775/2305-3100-2016-1-33-39

Bunday iqtisodiyot xalqaro miqyosda, turli davlat jarayonlariga integratsiyalashuvi muammosiz juda oson rivojlanishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni raqamlashtirishning davom etayotgan jarayonlari sifat jihatidan yangi formatdagi biznes modellarining paydo bo'lishi munosabati bilan soliq ma'muriyatchiligiga yangicha yondashuvlarni belgilashni taqozo etmoqda.

Ushbu dissertatsiyada raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali soliq ma'muri kontekstida raqamli iqtisodiyotning ta'rifini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy rivojlanishni raqamlashtirish soliq va soliq ma'muriyatchiligi sohasida ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi, ham yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot maqsadi soliq ma'muriyatchiligi jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklarini aniqlash va muammolarni aniqlash, iqtisodiyotni raqamlashtirishning yangi sharoitida uning samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Soliq ma'muri orqali soliq munosabatlari tartibga solinadi, soliq to'lovchilar va soliq boshqaruvi organlarining o'zaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan dolzarb masalalar hal etiladi. Institutsional nazariya soliq boshqaruvini soliq munosabatlari, davlat siyosati, tegishli organlarning vakolatlari va soliq tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlari bilan shakllanadigan ko'p qirrali murakkab institut sifatida qaraydi.

Raqamli iqtisodiyotda soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish mumkin bo'ladi, bu esa uning sifati va samaradorligini oshiradi. Shakllangan raqamli muhit sharoitida soliq organlari tomonidan zamonaviy IT vositalarini joriy etish soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilmaslik xavfini minimallashtirish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini maksimal darajada oshirish va soliq qonunchiligiga rioya qilish ko'rsatkichini 100 foizga yaqinlashtirish imkonini beradi. 2017-yildan beri O'zbekistonda soliq organlari budjet tizimi daromadlarining qariyb 90 foizini, shu jumladan, soliq ma'muriyatchiligini boshqarishda yangi islohotlarni joriy qilib kelmoqda. Hozirgi vaqtda soliq ma'muriyatchiligining hech qanday tartib-qoidasini soliq organlarining kundalik faoliyatiga ITni faol joriy qilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbekiston soliq tizimi ushbu sohada keng ko'lamli va murakkab loyihalarni amalga oshirishda allaqachon tajribaga ega va soliq ma'muriyatchiligida yangi ITdan foydalanish soliq bazasini kengaytirish va O'zbekiston budjet tizimining daromadlarini oshirish uchun muhim salohiyatni aniq ko'rsatib turibdi. Soliq yukini oshirmasdan zamonaviy texnologiyalar iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq ma'muriyatchiligini sifat jihatidan o'zgartirish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligiga e'tibor qaratildi. Elektron xizmatlar va raqamli yetkazib berish kanallari sohasida soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha foydali bo'lishi mumkin bo'lgan axborot texnologiyalarini o'rgana boshladi. Eng yaxshi jahon tajribasi – mobil texnologiyalar, sun'iy intellekt, aqlli portallar va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan biz global nazorat va tahliliy tizimni yaratgan holda amaliyotimizda foydalanganmiz. Jahon olimlarining tadqiqotlarida mualliflardan biri "Big Data texnologiyasiga katta e'tibor qaratilayotgan xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirishning potensial imkoniyatlari va yangi yo'nalishlarini belgilab bergan"⁹. (Smart Portal Solutions & Natural systems). Ushbu texnologiyalar soliq sohasida risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga, operatsiyalarning shaffofligini oshirishga yordam berishi va soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilish minimal og'irlik va maksimal darajada qulay va samarali bo'ladigan muhitni yaratishi kerak. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish juda keng doiradagi muammolarni hal qiladi hamda vazifalari va soliq ma'murining paradigmasini konseptual ravishda o'zgartirishga imkon beradi.

Foyda solig'ini undirishda soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini raqamlashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

⁹ Петухова Р.А. Развитие международного обмена налоговой информацией в процессе деофшоризации экономики // Промышленная политика в цифровой экономике: проблемы и перспективы (ЭКОПРОМ-2017): труды научно-практической конференции с зарубежным участием 16–17 ноября 2017 г. / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. Томск : Изд-во Политехнического университета, 2017.

– soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish (masalan, soliq tekshiruvlarini o'tkazish muddati qisqaradi; O'zbekiston soliq organlari ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yil oxirida soliq tekshiruvlari soni

2 baravardan ko'proq kamaydi. 5 yilda korxonalarining foydasi 2 baravardan ortiq oshdi, tushuntirish ishlarini olib borish uchun soliq organlarining mehnat xarajatlari kamaydi);

– soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlashni tezlashtirish va soliq majburiyatlarini minimallashtirish (masalan, O'zbekiston Respublikasi soliq organlari ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 5 yil ichida bir kunlik firmalar faoliyatiga chek qo'yildi);

– soliq to'lovchilar zimmasidagi ma'muriy yukni va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish (soliqlarni deklaratsiyalash va to'lash jarayonida vaqt va mehnat sarfini kamaytirish hamda soliq nazoratining boshqa choralari);

– soliq tekshiruvlarining muvofiqlik risklarini kamaytirish (nazorat qiluvchi organ va soliq to'lovchi o'rtasidagi kelishuvga yo'l qo'ymaslik, soliq tekshiruvi paytida yo'l qo'yilgan xatolar sonining kamayishi);

– biznes yuritish va soliq ma'muriyatchiligi geografiyasini kengaytirish va h.k.

Raqamli iqtisodiyotning faol rivojlanishiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlarida soliq jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish nihoyatda sekin kechmoqda, bu esa ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilmoqda. Ularning soliq ma'muriyatchiligidagi afzalliklari bu 2022-yilgi Digital evolution index ma'lumotlariga ko'ra, "dunyodagi birinchi raqamli iqtisodiyotlar o'ntaligi ustuvorlik tartibida kelmoqda. Bular Norvegiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Gonkong, Buyuk Britaniya, AQSh davlatlar hisoblanadi"¹⁰. Garchi O'zbekiston ushbu reytingda yuqori o'rinlarni egallamagan bo'lsa-da, ekspertlar O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti rivojlanishining eng yuqori cho'qqisini qayd etib, uning barqaror o'sishini bashorat qilishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklariga qaramay, yangi biznes modellarining paydo bo'lishi bilan soliq ma'muriyatchiligi jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini raqamlashtirishning asosiy afzalliklari soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlashni tezlashtirish va soliq majburiyatlarini minimallashtirish, soliq to'lovchilar zimmasidagi ma'muriy yukni va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, soliq tekshiruvlarining muvofiqlik risklarini kamaytirish, biznes yuritish va soliq ma'muriyatchiligi geografiyasini kengaytirishdan iboratdir.

Xulosa va takliflar.

Foyda solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish tahlili bo'yicha takliflar Aniqlikni oshirish va noaniqlikni kamaytirish uchun foyda solig'i qonunlari va qoidalarining murakkab qoidalarini ko'rib chiqing va soddalashtiring. Keraksiz byurokratik tartib-qoidalarni bartaraf etish va soliq to'lash va hisobot berish talablarini soddalashtirish.

Soliq to'lovchilarni foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar va rioya qilish tartib-qoidalari haqida xabardorlik va tushunishni oshirish uchun kompleks ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

Yuqori xavfga ega bo'lgan soliq to'lovchilarni aniqlash uchun xavf-xatarga asoslangan yondashuvni tatbiq etish va muvofiqlikni maqsadli bajarish uchun resurslarni taqsimlash.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlashni aniqlash va oldini olish, soliqlarning adolatli va adolatli yig'ilishini ta'minlash uchun muntazam soliq tekshiruvlari va tekshiruvlarini o'tkazish. Soliq deklaratsiyasini oson va tezroq topshirish hamda qog'ozbozlikni qisqartirish uchun elektron soliq to'lovi va to'lov tizimlarini joriy etish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Mardiasmo D. (2013) Taxation, Publisher Andi, Revition Edition, – p. 55.

¹⁰ Digital Planet. (2017) How competitiveness and trust in digital economies vary across the world. [Online] Available from: https://sites.tufts.edu/digitalplanet/files/2017/05/Digital_Planet_2017_FINAL.pdf.

Maxmudova, N. J. (2020). *Theoretical foundations of risk management in large corporate structures*. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 06 (86), 83-88.

Tashmuradov T. (2004) *Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik*. –T.: Bilim, -320 б.

Абдукаримов Б. (2005) *ва бошқ, Корхона иқтисодиёти*. – Т.: Фан, , 220 б.

Алиева С.С. (2011) *Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области)*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, – с. 26.

Мануйленко В.В., Садовская Т.А. *Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект //Финансовая аналитика: проблемы и решения*. – 2012. – №. 33. – с. 26.

Миляков Н.В. (1999) *Налоги и налогообложение. Курс лекций*. – М.: ИНФРА-М., – с. 348.

Федоров Андрей Николаевич. *Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород 2010.

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.